



Germenevtik texnologiyalarni ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyotga integratsiyalash metodikasi

Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi –

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: shaxnozan503@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-9744-7553>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda germenevtik texnologiyalarni o'quv jarayonining asosiy shakllari ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyotga integratsiyalash metodikasi yoritilgan. Tadqiqot davomida matnni tushunish, talqin qilish (interpretatsiya) va shaxsiy tajriba bilan bog'lashga asoslangan germenevtik yondashuvlarning nazariy-metodik asoslari ochib berilgan. Shuningdek, ma'ruza mashg'ulotlarini dialogik-germenevtik muhitga o'tkazish, amaliy mashg'ulotlarda muammoli tahlil usullaridan foydalanish, mustaqil ta'limda ilmiy manbalarni tanqid qilish hamda pedagogik amaliyotda o'z-o'zini tahlil qilish (refleksiya) mexanizmlari bo'lib o'tgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: germenevtik texnologiyalar, integratsiya, ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot, interpretatsiya, tushunish, kasbiy kompetensiya.

Методика интеграции герменевтических технологий в лекционные, практические занятия, самостоятельное обучение и педагогическую практику

Аннотация. В статье рассматривается методика интеграции герменевтических технологий в основные формы учебного процесса лекции, практические занятия, самостоятельную работу и педагогическую практику с целью повышения качества подготовки будущих специалистов в высших учебных заведениях. В ходе исследования раскрыты теоретико-методические основы герменевтического подхода, основанного на понимании, интерпретации текста и связи с личным опытом. Также разработаны практические рекомендации по переводу лекционных занятий в диалогическо-герменевтическую среду, использованию методов проблемного анализа на практических занятиях, критическому осмыслению научных источников в самостоятельной работе и механизмов самоанализа (рефлексии) в педагогической практике.

Ключевые слова: герменевтические технологии, интеграция, лекция, практическое занятие, самостоятельная работа, педагогическая практика, интерпретация, понимание, профессиональная компетенция.

Methodology for integrating hermeneutic technologies into lectures, practical classes, independent learning, and teaching practice

Annotation. *The article discusses the methodology of integrating hermeneutic technologies into the main forms of the educational process lectures, practical classes, independent work, and pedagogical practice in order to improve the quality of training future specialists in higher education institutions. The study reveals the theoretical and methodological foundations of the hermeneutic approach, which is based on understanding, text interpretation, and connection with personal experience. In addition, practical recommendations have been developed for transforming lectures into a dialogical-hermeneutic environment, using problem-analysis methods in practical classes, critically comprehending scientific sources in independent work, and applying self-analysis (reflection) mechanisms in pedagogical practice.*

Keywords: *hermeneutic technologies, integration, lecture, practical class, independent work, pedagogical practice, interpretation, understanding, professional competence.*

KIRISH

Zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda o'zlashtirilayotgan bilimlarni chuqur anglagan holda amalda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish oliy ta'lim oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. An'anaviy ta'lim amaliyotida ko'pincha axborotni tayyor holda taqdim etish va mexanik yodlatish ustuvor bo'lib qolayotgani talabalarning kognitiv faolligini cheklamoqda. Bu esa bo'lajak mutaxassislardan ma'lumotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tanqidiy tahlil qilish, mazmun-mohiyatini chuqur tushunish, har qanday kasbiy vaziyatda to'g'ri talqin qilish (*interpretatsiya*) hamda shaxsiy tajriba bilan uzviy bog'lash mexanizmlarini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoniga germenevtik texnologiyalarni tatbiq etish va ularni o'quv faoliyatining barcha shakllariga yaxlit holda integratsiyalash dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi[1].

Pedagogikada germenevtika bu shunchaki muloqot yoki matn o'qish jarayoni bo'lmay, balki ta'lim oluvchining ongi va voqelik o'rtasidagi ma'naviy aloqalarni ochib beruvchi, tushunishni ta'minlovchi kuchli metodologik asosdir. Ilmiy-pedagogik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, germenevtik yondashuvlar asosan filologiya va falsafa fanlarida keng o'rganilgan bo'lib, zamonaviy kasbiy ta'limda ulardan foydalanish imkoniyatlari yetarlicha ochib berilmagan. Bugungi kunda germenevtik texnologiyalarni oliy ta'limning ayrim bo'g'inlaridagina parchali holatda qo'llash kuzatiladi. Biroq ularni o'quv jarayonining asosiy to'rtligi ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyotga tizimli va yaxlit integratsiyalash metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu holat ta'lim sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan mavjud uslubiy imkoniyatlar o'rtasida ziddiyat mavjudligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy manbalar tahlili germenevtik yondashuvning asosiy mazmuni tushunish, interpretatsiya, dialog va refleksiya kategoriyalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. F.Shleyermaxer germenevtikani matn mazmunini anglash va muallif fikrini talqin qilish metodologiyasi sifatida asoslagan bo'lsa, G.-G.Gadamer tushunish jarayonini shaxsning avvalgi tajribasi, tarixiy-madaniy kontekst va dialog bilan bog'laydi [2; 3]. P.Rikyor esa

germenevtikani matn, inson faoliyati va ijtimoiy tajribani anglash vositasi sifatida talqin qiladi [7]. Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda N.A.Muslimov, J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov, R.Safarova va boshqa olimlar talabalarning kasbiy shakllanishi, mustaqil va tanqidiy fikrlashi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini yoritganlar [4; 5; 9]. Biroq germenevtik texnologiyalarni ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyotga yagona metodik tizim asosida integratsiyalash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqot tizimli, germenevtik va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va modellash kabi nazariy usullar; pedagogik kuzatish, anketa-so'rovnoma, suhbat, test va ekspert baholash kabi empirik usullar qo'llanildi. Shuningdek, ishlab chiqilgan metodikani tajriba va nazorat guruhlarida sinovdan o'tkazish hamda natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Germenevtik texnologiyalar ma'ruzalarda dialogik-germenevtik muloqot va refleksiv pauzalar, amaliy mashg'ulotlarda keys-interpretatsiya va muammoli matn tahlili, mustaqil ta'limda ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, pedagogik amaliyotda esa refleksiv kundalik va o'z faoliyatini tahlil qilish mexanizmlari orqali integratsiyalandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida germenevtik texnologiyalarni oliy ta'limning asosiy shakllari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyotga o'zaro bog'liq holda integratsiyalash metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodika talabaning o'quv axborotini shunchaki qabul qilishi emas, balki uni tushunishi, talqin qilishi, shaxsiy va kasbiy tajribasi bilan bog'lashi hamda o'zlashtirilgan mazmun yuzasidan refleksiv xulosa chiqarishiga yo'naltirildi.

Ma'ruza mashg'ulotlarida an'anaviy monologik bayondan dialogik-germenevtik muloqotga o'tish, muammoli savollar, oldindan tushunish elementlari va refleksiv pauzalardan foydalanish talabalarning o'quv materialiga faol munosabatini kuchaytirdi. Natijada ma'ruza jarayoni tayyor axborotni yetkazish shaklidan mazmunni birgalikda anglash va interpretatsiya qilish jarayoniga aylantirildi. Bu esa talabalarda tushunchalarning mazmuniy bog'lanishlarini aniqlash, turli qarashlarni qiyoslash hamda o'z fikrini asoslash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Amaliy mashg'ulotlarda keys-interpretatsiya, muammoli matn tahlili va kasbiy vaziyatlarni germenevtik sharhlash usullarining qo'llanilishi talabalarda nazariy bilimlarni real pedagogik holatlar bilan bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Talabalar berilgan vaziyatni faqat tashqi belgilar asosida baholashdan ko'ra, uning sababiy, mazmuniy va kontekstual jihatlarini tahlil qilishga yo'naltirildi. Natijada kasbiy vaziyatlarni tushunish, ularga turli nuqtai nazardan yondashish va asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyati kuchaydi.

Mustaqil ta'lim jarayonida ilmiy manbalar, monografiyalar va o'quv matnlarini tanqidiy o'rganish, germenevtik annotatsiya va tahliliy sharhlar tayyorlash orqali talabalarning mustaqil fikrlash faoliyati faollashtirildi. Mazkur faoliyat turli ilmiy qarashlarni qiyoslash, muallif pozitsiyasini aniqlash, matnning yashirin va ochiq mazmun qatlamlarini anglash hamda o'z munosabatini ilmiy asoslashga yo'naltirildi. Bu esa mustaqil ta'limni oddiy topshiriq bajarish jarayonidan mazmunni chuqur o'zlashtirish va qayta talqin qilish faoliyatiga aylantirish imkonini berdi.

Pedagogik amaliyot jarayonida refleksiv kundaliklardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy harakatlarini tahlil qilishiga alohida imkon yaratdi. Talabalar o'tkazilgan dars, yuzaga kelgan pedagogik vaziyat, o'quvchilar reaksiyasi hamda o'z faoliyatining kuchli va zaif jihatlarini qayd etish va sharhlash orqali kasbiy refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Mazkur jarayon ularga pedagogik qarorlarning sabab va

oqibatlarini anglash, o'z faoliyatiga tanqidiy baho berish hamda keyingi pedagogik harakatlarni ongli ravishda rejalashtirish imkonini berdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari germenevtik texnologiyalarni alohida mashg'ulot turi doirasida emas, balki ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyotni qamrab oluvchi yagona metodik tizim sifatida qo'llash pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Ushbu integratsiya talabada "tushunish – interpretatsiya – qo'llash – refleksiya" ketma-ketligini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari germenevtik yondashuvning asosiy tamoyillari – tushunish, interpretatsiya, dialog va refleksiyani zamonaviy oliy ta'lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. G.-G.Gadamer tomonidan ilgari surilgan tushunishning dialogik tabiati hamda F.Shleyermaxerning matn va muallif fikrini talqin qilish haqidagi qarashlari mazkur metodikaning nazariy asoslari bilan uyg'unlashadi [2; 3]. Talabaning mazmunni tayyor shaklda qabul qilmasdan, uni o'z tajribasi va mavjud bilimlari bilan bog'lab anglashga intilishi germenevtik ta'limning asosiy pedagogik qiymatini belgilaydi. P.Rikyorning matni interpretatsiya qilishni inson faoliyati va tajribasini anglash bilan bog'lagan qarashlari ham tadqiqot natijalarini izohlashda muhim ahamiyatga ega [7]. Chunki pedagogik jarayonda talaba faqat yozma matnni emas, balki kasbiy vaziyat, o'qituvchi va talaba faoliyati, pedagogik munosabatlar hamda yuzaga keladigan muammolarni ham talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan, germenevtik yondashuv bo'lajak pedagoglarda kasbiy hodisalarni chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi metodologik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda talabaning faol pozitsiyasi, mustaqil va tanqidiy fikrlashi, kasbiy faoliyatga tayyorligi hamda refleksiv imkoniyatlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida e'tirof etilgan [4; 5; 9]. Mazkur tadqiqot ushbu yo'nalishlarni germenevtik texnologiyalar orqali yagona tizimda birlashtirishga intilishi bilan ajralib turadi. Xususan, ma'ruza jarayonidagi dialogik muhit, amaliy mashg'ulotlardagi interpretatsion tahlil, mustaqil ta'limdagi tanqidiy o'qish va pedagogik amaliyotdagi refleksiv kundaliklar o'zaro uzviylikda tashkil etilgani metodikaning muhim xususiyatidir.

Tadqiqotning ilmiy-metodik ahamiyati shundaki, germenevtik texnologiyalar o'quv jarayonining faqat matn bilan ishlash bosqichiga tegishli vosita sifatida emas, balki talabaning bilish, kasbiy faoliyat va o'zini o'zi anglash jarayonlarini birlashtiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Bu yondashuv talabalarning bilimlarni reproduktiv o'zlashtirishidan ularni mazmunan qayta ishlash, tushuntirish, interpretatsiya qilish va kasbiy vaziyatlarga tatbiq etish darajasiga o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, germenevtik texnologiyalarni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlikni talab etadi. An'anaviy ma'ruza usulidan dialogik va refleksiv muhitga o'tish, talabalarni ochiq savollar, interpretatsion topshiriqlar va muammoli vaziyatlar bilan ishlashga jalb etish pedagogning faoliyat mazmunini ham o'zgartiradi. O'qituvchi bunda tayyor bilimni yetkazuvchi emas, balki tushunish va talqin jarayonini tashkil etuvchi moderator vazifasini bajaradi. Kelgusida germenevtik texnologiyalarni raqamli ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim, elektron matnlar va raqamli portfolio bilan integratsiyalash imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq. Bu germenevtik yondashuvning zamonaviy ta'lim muhitidagi didaktik imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda talabalarning mustaqil, tanqidiy va refleksiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari germenevtik texnologiyalarni oliy ta'lim jarayonining asosiy shakllari – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyotga tizimli integratsiyalash talabalarning o'quv materialini chuqur tushunishi, interpretatsiya qilishi, tanqidiy tahlil etishi hamda o'z kasbiy faoliyatiga refleksiv munosabatini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Ma'ruza mashg'ulotlarida dialogik-germenevtik muhit va reflektiv pauzalardan foydalanish talabaniing axborotni passiv qabul qiluvchidan faol interpretatorga aylanishiga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda keys-interpretatsiya va muammoli matn tahlili nazariy bilimlarni kasbiy vaziyatlar bilan bog'lash, hodisalarning ichki mazmunini ochish hamda asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ta'limda ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish va germenevtik annotatsiyalar tayyorlash talabalarning mustaqil va tahliliy fikrlashini faollashtiradi. Pedagogik amaliyotda reflektiv kundaliklardan foydalanish esa bo'lajak o'qituvchilarning o'z faoliyatini baholashi, pedagogik qarorlarning sabab va oqibatlarini anglash hamda kelgusi faoliyatini ongli rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, germenevtik texnologiyalarni "tushunish – interpretatsiya – amaliy qo'llash – refleksiya" ketma-ketligi asosida ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'lajak mutaxassislarning kognitiv, tahliliy va kasbiy-reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Kelgusida mazkur metodikani raqamli va masofaviy ta'lim muhitiga moslashtirish, elektron ta'lim resurslari hamda raqamli portfolio bilan integratsiyalash yo'nalishida tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. – Toshkent, 2020.
2. Гадамер Х.-Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики / пер. с нем. – М.: Прогресс, 1988. – 704 с.
3. Шлейермахер Ф. Герменевтика. – СПб.: Европейский дом, 2004. – 242 с.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish nazariyasi va metodikasi: ped. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2007. – 356 b.
5. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 160 b.
6. Bekmurodov M.M. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash metodikasi // Pedagogik ta'lim. – 2023. – № 2. – B. 45–50.
7. Ricoeur P. Hermeneutics and the Human Sciences: Essays on Language, Action and Interpretation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 312 p.
8. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Ростов н/Д: Феникс, 2007. – 480 с.
9. Safarova R. va boshq. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 210 b.
10. Crotty M. The Foundations of Social Research: Meaning and Perspective in the Research Process. – London: SAGE Publications, 1998. – 256 p.